

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ МАЖЛИСИ ҚОНУНЧИЛИК ПАЛАТАСИ
ЭКОҲАРАКАТ ДЕПУТАТЛАР ГУРУҲИ

ЎЗБЕКИСТОН ЭКОЛОГИК ҲАРАКАТИ

АБУ РАЙҲОН БЕРУНИЙ НОМИДАГИ
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ТЕХНИКА УНИВЕРСИТЕТИ

“XXI АСРДА ЭКОЛОГИК ТАЪЛИМНИНГ РОЛИ ВА ЎРНИ:
ТЕХНОГЕН ИШЛАБ ЧИҚАРИШДАГИ ЭКОЛОГИК
МУАММОЛАР ЕЧИМЛАРИ”

МАВЗУСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАННИНГ
МАҚОЛАЛАР ТЎПЛАМИ

ТРУДЫ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

“РОЛЬ И МЕСТО ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В
XXI ВЕКЕ: РЕШЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ
ТЕХНОГЕННЫХ ПРОИЗВОДСТВ”

2015 йил 25 ноябрь

Тошкент-2015

boilanaadi. Ularning umumiy va farqlanuvchi tomonlari ajratiladi. Mana shunday kilib, takkoslash umumlashtirish aqliy faoliyatiga olib keladi.

UDK: 502

Ekologik ta'lim va tarbiya – sog'lom hayot poydevoridir

Xolmuradov I.N. (SamChTI), Abduraxmonov SH., To'rayev S.S., Xolmuradov O.,
Abduxamidov C.J. (ToshDAU), Xolmuratov R.N. (TMI)

Bugungi kunga kelib insoniyatning biosferadagi jarayonlarga bo'lgan ta'siri o'zining yuqori bosqichiga yetdi. Ekologik muammolar kengayib, ularni hal etish dolzarb vazifa bo'lib qolgan hozirgi davrda bu muammolarni hal qilishda insoniyat uchun asosan ekologik ong va ekologik madaniyatning o'rni beqiyosdir. Hozirgi paytda yer yuzida mahalliy va ma'naviy ekologik inqirozli vaziyatlar kuzatilmoqda. Bunday murakkab davrda ekologiyaning ilmiy-nazariy, amaliy, ta'limiy, madaniy va axborot ahamiyatlari tobora ortib bormoqda. Atrof muhit holatini to'g'ri baholash, zarur tadbirlarning o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlash ekologik bilimlarning rivojlanganlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun butun dunyoda va alohida davlatlar miqyosida turli tadbirlar o'tqazilmoqda. Atrof muhitning holatini to'g'ri baholash kelajakda yuz berishi mumkin bolgan ekologik o'zgarishlarni oldindan bashorat qilish imkonini beradi. Ularni o'rganish bizga nima uchun kerak degan savollar ko'pchilikda paydo bo'lishi aniq. Ayniqsa ekologik bilimlarni endi o'zlashtira boshlagan yosh avlod vakillari va bunday bilimlarga ega bo'lmagan shaxslarda. Ba'zilar esa ekologiy tushunchasi haqida ham yetarli tasavvurga va tushunchaga ega emas.

Muammoli vaziyatlar asosida ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil qilishdan asosiy maqsad ularni hal qilish davomida yoshlarni tabiatni asrash ishlariga jalb qilish, shu bilan birga ekologik muammolarni bartaraf qilishda yoshlarning faolligini, ongli ishtirokini ta'minlash, ularda loqaydlik kayfiyatini yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik uchun imkon yaratishdan iboratdir. Umuman ekologik ahvolni barqarorlashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa omillarga bog'liq. Bularning barchasi orasida ekologik ta'lim va tarbiyaning ahamiyati beqiyosdir. Bu mavzu hozirgi zamonning eng dolzarb mavzularidan biri desak adashmagan bo'lamiz. Ekologik ta'lim, ekologik tarbiya degan jumlar o'zi qanday ma'nalarni anglatadi? Shu boisdan ham dastlab ekologiya, ta'lim va tarbiya terminlariga izoh berishni lozim deb bildik.

Ekologiya termini yunoncha "oikos" (eykos) – yashash joyi, makon va "logos" – fan so'zlaridan olingan bo'lib, tirik organizmlarning tevarak atrofdagi muhit bilan o'zaro munosabatini o'rganuvchi biologik fan hisoblanadi. Ekologiya fani tabiatni, undagi ekologik muammolarni, hayvonot va o'simliklar dunyosidagi muammolarni o'rganuvchi fan sifatida qaralsa ham to'g'ri bo'ladi. Ekologiya fani insonlarni tabiatga, hayvonot va o'simlik dunyosiga nisbatan mehr – muhabbat uyg'otish, e'tiborni jalb etish kabi maqsadlarda o'rganilmoqda. Biz ekologiya fanini va uning har bitta mavzusini "inson" ob'yekti bilan o'zaro bog'liq holda o'rganilsa yetarli darajada e'tibor qaratilishiga erishushimiz kerak. Inson tabiatning bir bo'laki bo'lgan holda u bilan bo'lgan munosabat orqali ekologik madaniyat shakllana borishi tufayli, tabiatni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish hamda uni boshqarish uchun tabiat qonunlarini kashf qilib kelgan. Ammo inson o'zining tabiatga ta'siri orqali undagi muvozanatni buzdi va tabiat hodisalarining davriy muvozanatini izdan chiqardi. Inson va atrof-muhit o'rtasidagi uzaro

munosabatlar keskinlashgan, fan-texnika jadal rivojlangan davrda tabiatni muhofaza qilish eng asosiy muammolardan hisoblanadi.

Tabiatni muhofaza qilish tushunchasi insonning atrof-muhitga salbiy ta'siri yuzaga kelgan uzoq o'tmishdan yaxshi ma'lum. Yer yuzidagi har bir narsa odamzot bilan bog'liq va ular insonning ta'siridan chetda qolmagan. Masalan yer, suv, havo, hayvonot va o'simliklar dunyosini olaylik. Bularning hammasi insoniyat bilan chambarchas bog'langan. Hozirgi kunda ularning hech birisi inson hayotini tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu tabiat unsurlari bilan bog'liq bo'lgan muammolar avvalambor insoniyatning muammosidir.

Ekologiya fanini o'rganishida va o'qitishda ko'proq shu muammolarga, ularning keltirib chiqaradigan oqibatlariga va yechimlariga ko'proq e'tibor berish lozim va bu nafaqat ekologiya fani mutaxassislarini, balki butun insoniyatning yutug'i hisoblanadi. Endi "ta'lim" terminiga e'tibor qaratsak. Ta'lim deb - o'qituvchi tomonidan oldindan tuzilgan reja asosida, ma'lum metodlar yordamida ta'lim oluvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishiga aytiladi. Demak, bundan ko'rinadiki, insonlarni ongida sog'lom muhitni shakllanishida pedagoglar muhim o'rin tutadi.

Ta'lim inson umrining ma'lum qismida kechadigan jarayon bo'lsa, tarbiya inson tug'ilganidan to umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Bu ikki jarayon alohida o'rganilsada, aslida ular bir-biri bilan yaxlit bir butundir va ularning birisiz ikkinchisini tasavvur etib bo'lmaydi. Tarbiya oiladan boshlanishi hammaga ayon. Shuning uchun shaxsning komil inson bo'lib shakllanishida ota-ona va oilaviy muhitning o'rni beqiyosdir. Endi bu uchta atamani biriashtirib izoh berishimiz mumkin. Ekologik ta'lim-tarbiya deganda odamlar va butun borliq o'rtasidagi munosabatlar, ularning oqibatlari va muammolari, ularni hal etish yo'llari bilan bog'liq bilimlarni insonlar ongida shakllantirish, hamda bu bilimlarni ularning harakatida aks ettirish tushuniladi.

Bundan shunday fikr kelib chiqadiki, biz ekologik ta'lim-tarbiyaga jiddiy e'tibor berishimiz kerak. Xo'sh, biz buni amalga oshirishimizda nimalarga e'tibor berishimiz, ta'lim va tarbiya jarayonini qanday tashkillashtirishimiz kerak, qanday ta'lim metodlari va texnologiyalaridan foydalanishimiz kerak? Dastlab ta'lim-tarbiya oluvchilar haqida to'xtalib o'tsak. Insonda ta'lim-tarbiya olish oiladan boshlanishini hisobga olsak, asosiy e'tibor ota-onaga qaratiladi. Shunday ekan, avvalambor ota - onaning o'zi sog'lom va teran fikrlovchi, kerakli bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lgan insonlar bo'lishi zarur. Undan keyin maktabgacha ta'lim-tarbiya markazlaridagi muhit ham juda muhim rol o'ynaydi. Misol uchun ba'zi bir tarbiyalanuvchilar bog'chadan uyga qaytishni xohlamasdan injiqlik qiladi. Bu bog'chada bolalarga bo'lgan e'tibor yaxshiligini bildiribgina qolmay, balki oiladagi e'tibor yetarli darajada emasligini yoki oilaviy muhit yaxshi emasligini ham tasdiqlaydi. Ota-onalar faqatgina farzandini xohish-istaklarini, ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, unga yetarli darajada e'tibor berishi va tarbiyasi bilan iloji boricha ko'proq o'zlarini shug'ullanishlari zarur.

Farzandlarini yoshligidan mehnat faoliyatiga o'rgatib borib, tabiatga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otishlari va tejamkorlik, mehnatsevarlik, tabiatga muhabbat kabi xususiyatlarni shakllantirib borishlari kerak. Bundan tashqari, insoniyat tarbiyasi uchun uning mahallasi ham alohida o'rin egallaydi. Mahallalar ham ushbu ishlarga jonbozlik ko'rsatishi lozim, deb o'ylaymiz.

Ta'lim-tarbiyaning keyingi bosqichida maktabdagi pedagoglar jamoasi ham juda katta ahamiyatga ega. Chunki ular bolalarga dastlabki bilim va ko'nikmalarni beradilar. Bu maktab davrida ham o'qituvchi har bir bolaning ota-onasi bilan hamkorlikda ish olib borishi zarur. Chunki bolada bir xil mavzudagi ma'lumotlarning (tarbiya bilan bog'liq) maktabda boshqacha va oilada

boshqacha talqin etilganda ikkilanish paydo bo'ladi. Natijada bola to'g'ri ma'lumotni har doim ham anglay olmay qoladi. Shuning uchun ham o'qituvchi va ota-onaning fikri bir joydan chiqishi juda ham zarur. Maktabda o'tkazilib turiladigan ota-onalar majlisi zaminida shu maqsad yotganini unutmasligimiz kerak.

Maktabda o'quvchilar fundamental bilimlarni olishadi. Shuning uchun ham bu davrda yoshlarni tabiatga qiziqishga, uni asrashga va muhofaza qilishga o'rgatish zarur. Bu jarayonlarni nazariy jihatdan ham ko'ra ko'proq amaliy jarayonlarda shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bularga misol qilib turli ekskursiyalarni, har-xil ekologik tadbirlarni tashkil qilish va umumxalq hasharlarini misol qilib keltirish mumkin.

Umuman olganda ta'lim berish jarayonida ekologik ta'lim-tarbiyani uzluksiz ravishda tashkil etish shart. Ayniqsa kasb-hunar kollejlari, akademik litseylarda va oliy o'quv yurtlarida tahsil oluvchi o'quvchilar va talabalar ma'lum bir kasbga yo'naltirilgan holda ta'lim olayotgan bo'lishadi va ular o'zlari tanlagan kasbini tabiatga hamda ekologiyaga nisbatan ko'rsatishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlarini mukammal bilishlari zarur.

Bugungi kunda, oldimizda yoshlarning tabiatga nisbatan insonparvarlarcha munosabatini shakllantirish masalasi ko'ndalang turgan ekan, pedagog kadrlar o'z mehnat faoliyatlari davomida yoshlarda tabiat qonunlari, inson va tabiat, ularning o'zaro mutanosibligi, tabiiy muvozanatini saqlash sohasidagi bilimlarini va ularning negizida ekologik madaniyatni tarkib toptirishlari, shuningdek, talaba va o'quvchilar orasida ekologik mavzulardagi tarbiyaviy ishlarni puxta rejalashtirishlari hamda ularni amalga oshirishlari lozim. Shundan so'nggina biz ulardan kelajakda kelib chiqadigan salbiy ta'sirlarni kamaytirish yoki butunlay yo'qotish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlari, izlanishlari va o'zlari yaratadigan kashfiyotlarni kutishimiz mumkin bo'ladi.

Elektr energiyasi ishlab chiqarishning ekologik muammolarga bog'liq jihatlari bor. Bu ayniqsa, GRES va AESlarda kuzatiladi, ya'ni GRESlarda elektr energiyasi ishlab chiqarish jarayonida yonilg'i sifatida turli ruda va gazlardan foydalanilganda atmosferaga turli xil zararli gazlar ajralib chiqsa, AESlardan chiqayotgan radiatsiyalar har qanday tirik organizmga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Bundan tashqari mana shu jarayonlar yildan yilga qazilma boyliklar tanqisligini keltirib chiqarmoqda.

Ammo bir necha yillardan buyon bu salbiy oqibatlarni oldini olish bo'yicha keng ko'lami ishlar ham olib borilmoqda. Jumladan, muqobil energiya manbalaridan foydalanish yo'li bilan elektr energiyasi ishlab chiqarish yildan yilga takomillashtirilib borilmoqda. Bu esa hech qanday ekologik muammolarni keltirib chiqarmaydi. Ammo bunda ham ayrim kamchiliklar bor, ya'ni bu texnologiyaning moliyaviy jihatdan qimmatligi. Hozirgi paytda biz yoshlar uchun ana shu muammolarni yechimini topish eng dolzarb vazifalardan biri qilib qo'yilgan.

Bundan tashqari ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'qitish usuli ham bolaning bilim ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasini belgilab beradi. Masalan, an'anaviy o'qitish usulida quyidagicha bilim darajasiga erishish mumkin:

Ma'ruzalar	5%
O'qish	10%
Ko'rgazmali va audio materiallar	20%
Namoyish etish	30%

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, yuqoridagi keltirilgan usullar orqali kerakli natijaga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu usullar sust usullar deyiladi. Ammo faol usullar ham yo'q emas.

Masalan, noan'anaviy o'qitish usullarida quyidagicha bilim darajasiga erishish mumkin:

Bahs guruhlarida ishlash	50%
--------------------------	-----

Amaldagi tajribalar	75 %
Boshqalarga o'rgatish	90 %

Bu ko'rsatilgan usullar esa, o'qituvchidan anchagina, sermahsul ishlashni talab qiladi. Shuning uchun ham ta'lim jarayoni bahs munozarali va amaliy tajribalar asosida ko'proq tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshqalarga o'rgatish usulidan foydalanishda ta'limning faollashtiruvchi metodlaridan biri "o'rin almashish metodidan" foydalaniladi. Unga ko'ra ma'lum bir o'quvchi bilan o'qituvchi joy almashishadi va bu o'quvchi o'tilayotgan mavzu yuzasidan dars o'tib beradi. Buning natijasida o'quvchining dars o'tish qobiliyati shakllanadi va o'layotgan bilimlari takrorlanaverishi natijasida xotirada mustahkamlanib boradi. Bu metoddan ko'proq kasbiy-ta'lim yo'nalishlari talabalarini o'qitishda foydalaniladi.

УДК 582.597 (575.1)

БАРКАМОЛ ИНСОННИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ЭКОЛОГИК ТАЪЛИМ-ТАРБИЯНИНГ АҲАМИЯТИ

Эгамбердиева Л.Ш., Азимова Д.О., Ёлгорова Д.Ш., Атабаева Н.К. ЎзМУ

Ўзбекистон Республикасининг "Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида"ги қонунининг 4-моддасига миллий таълим тизимида экологик ўқувнинг мажбурийлик принципи киритилган. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "2008-2012 йилларда Ўзбекистон Республикасининг атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ишлари дастури тўғрисида"ги 212-сонли қарориде эса узлуксиз экологик таълим тизimini ривожлантириш масаласи қўйилган.

Атроф-муҳитни инфлосланишдан сақлаш, табиий бойликлардан оқилона фойдаланиш кўп жиҳатдан аҳолининг экологик саводхонлик даражаси, экологик маданиятига боғлиқдир. Аҳоли ўртасида экологик онгни шакллантириш ва уни ривожлантириш орқалигина муваффақиятли амалга оширилиши мумкин. Ушбу вазифаларни амалга оширишда "Экология" курси алоҳида муҳим аҳамиятга эга.

«Экология» курсининг мақсади талабаларда экологик дунёкарашни шакллантириш ва экологик фикр юритишни ривожлантиришдир. Талабаларга экологик таълим-тарбия, экологик тадбирларни амалга оширишнинг илмий-назарий ва методик асосларини бериш курсининг вазифалари ҳисобланади.

Ушбу курснинг барча ўқув юртларида ўқитилиши ҳозирги замон талабларидан келиб чиқади. Ҳар бир соҳа мутахассиси, албатта, экологик билимлардан хабардор бўлиши ва келгуси фаолиятида экологик таълим-тарбия табиатни муҳофаза қилиш тадбирларининг амалга оширилишида ўз ҳиссасини қўшиши лозим.

Таълимни янги инновацион тизimini шакллантириш механизмини яратиш асосий вазифалардан ҳисобланади. Ўқув жараёнига янги ахборот ва педагогик технологияларни кенг жорий этиш, модернизациялаш, ижтимоий ахборот базасини шакллантириш механизмлари яратилмоқда.

Экологик муаммоларнинг оламшумул аҳамият касб этиши ва инсоният тақдирини, кадрини белгилаб туриши таълим-тарбия соҳаларининг муштарак манфаатлари асосида бирлашувини тақозо этади. Бу эса умуминсоний методологиянинг ривожланишини талаб этади.

15	Ниязова М.М., Пулатов Х.Л., Турсунов Т.Т., Адилова К.М. Тошкент шаҳри чиқиндиларидан фойдаланиш ечимлари.....	60
16	Одилов С.А., Ибрагимов Н.И., Аюбова И.Х. Атроф-мухитни яшил дубос билан ўранганда экологик таълим-тарбиянинг роли.....	63
17	Петросова Л.И., Расулев А.Х. Формирование экологического образования студентов.....	65
18	Рахимова Т.У., Махкамов Т.Х. Инсон ҳаёт мухитини оптимизация қилишда замонавий экологик тадбирлар.....	67
19	Садыкова К.А. Формирование экологической культуры на уроках природоведения.....	71
20	Саидов Д.Ш. Аллабергена Д.К. Уздуксиз таълимда экологик таълим-тарбияни шакллантириш.....	74
21	Тухтахуджаева М.У. Обучение переводу экологических терминов для студентов технических вузов, как инструмент для интеграции с международными партнерами.....	76
22	Умарова Н.З., Исынова И.А. Экологическое образование и воспитание как фактор формирования духовной среды в обществе.....	79
23	Хабибуллаев С.Ш., Ахроров Б., Абдуллаев У.М. Решение экологических проблем при первичной переработке нефтепродуктов.....	83
24	Холмуратов Т.Н., Аюбова И. Х., Шомухамедова Д.С., Холмуратов И.И. Ёш авлоднинг экологик таваққулини шакллантириш омиллари.....	86
25	Xolmuratov I.N. Abduraxmonov SH. Toʻlayev S.S. Xolmuratov O. Abduxamidov S.J. Xolmuratov R.N. Ekologik taʼlim va tarbiya sogʻlom hayot roʻydevoridir.....	90
26	Эгамбердиева Л.Ш., Азимова Д.О., Ёлгорова Д.Ш., Атабаева Н.К. Баркамол инсонни шакллантиришда экологик таълим-тарбиянинг аҳамияти.....	93
27	Эшқобиллов Ш., Жўраев О.Ж. Ёшларнинг экологик оғи ва маданиятини юксаттиришда таълим-тарбиянинг роли.....	95
28	Қасимова Г.А. Экологик таълимда барқарор ривожланиш концепцияси акс эттирилиши муаммолари.....	99

2-ШУЪБА

Экологик барқарор мухитни яратишда ишлаб чиқаришдаги экологик муаммолар ечимларини ҳал этишнинг замонавий йўллари ва усуллари

1	Абдуллаев А.Х. Темир йўл транспорти соҳасида эколог-муҳандислар тайёрлашнинг долзарб вазифалари.....	102
2	Абдурахмонова С.П., Бобомуродов С., Сафаев М., Юлдашев Р.Х., Самадов А.Х. Маҳаллий иккиламчи полиметаллик оксидлар аралашмалари асосида каталитик ва сорбцион тизим олиш.....	105
3	Азимов Б.Г. Экологик барқарор мухитни яратиш сари биринчи амалий қадам.....	108
4	Атабаева А.Н., Эгамбердиева Л.Ш., Турсунова Ш.А. Техногенные (антропогенные) воздействия на литосферу.....	111
5	Ахмедов А., Эшқобиллов Ш., Жўраев О.Ж. Халқаро экологик сиёсий муносабатларни глобаллашув ва интеграциялашувнинг ижтимоий, фалсафий масаллари.....	114
6	Базаров Б.И., Калауов С.А., Ярмухамедов Х.Х., Васидов А.Х. Улучшение экологических показателей дизелей путем перевода их на питание природным газом.....	117
7	Гаппарова З.Х., Турсунов Т.Т., Пулатов Х.Л., Хамдамова О.Б. О возможности применения экологически чистых холодильных агентов взамен озоноразрушающих.....	